

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.S.Shodiyeva</b>	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini .....	424
<b>M.G'.Ismoilov</b>	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
<b>N.X.Raxmankulova</b>	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati .....	433
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-siyosiy qasamlar .....	439
<b>A.A.Hakimov</b>	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi .....	444
<b>Sh.T.Abbosova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati .....	448
<b>A.A.Parmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
<b>S.M.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	456
<b>S.M.Ro'zimurodov</b>	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
<b>M.A.Мирзарахимов</b>	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
<b>Z.H.Ubaydullayeva</b>	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili .....	467
<b>J.Xamroqulov</b>	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
<b>N.O.Yunusaliyeva</b>	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
<b>N.I.Suleymanova</b>	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati .....	481
<b>Y.V.Lutfullina</b>	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
<b>J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob</b>	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish .....	490
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida .....	497
<b>S.A.Sharipova</b>	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
<b>K.I.Марайимова</b>	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
<b>B.B.Djalalov, K.P.Uzakov</b>	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
<b>M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov</b>	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK AHAMIYATI****СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****SOCIO-PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE MUSIC EDUCATION****Abdullayev Sardorbek Maxammat o'g'li<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligi, ularning ta'lim jarayonidagi ma'lumotlarni olishi, ularni ta'lim berish tizimlarida faoliyatlarini tashkil etishi, o'zlarini yangi ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi ta'limiy qobiliyatlari haqida ma'lumot beriladi. Bu jarayonda musiqa ta'limini olib borilishida o'quvchilarning o'z kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borishi, ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishi hamda kelajakda musiqa fani o'qituvchisi sifatida ta'lim berishi, muammolarni o'z konitiv tafakkurida yechishi uchun uning kognitiv psixologiyasini effektiv o'quv-yondashuv usullarini yordamida oshirish haqida fikr bildirilgan. SHuningdek, musiqa ta'limi ommaviy va shaxsiy rivojlanish uchun muhim rol o'ynaydi. Ushbu mavzuda kognitiv kompetentlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, kompetentlik o'quvchilarning muallimlar tomonidan yangi bilmalarni osonlik bilan egallashlarini ta'minlaydi. Maqolada ushbu dolzarb masalalarga ham ahamiyat qaratilgan.

**Аннотация**

В статье представлены сведения о когнитивной компетентности учителей музыкального образования, их способности получать информацию в образовательном процессе, организовывать свою деятельность в образовательных системах, обеспечивать себя новой информацией. При этом процессе музыкального образования высказывалось мнение об улучшении когнитивной психологии студентов с помощью эффективных педагогических подходов с целью регулярного актуализации их профессиональных знаний, постепенного формирования навыков и в дальнейшем преподавания как музыкального образования. учителя, решать проблемы в своем воображаемом мышлении. Также музыкальное образование играет важную роль для общественного и личностного развития. Когнитивная компетентность важна в этой теме, а компетентность гарантирует, что учащиеся смогут легко получать новые знания от учителей. Статья посвящена этим актуальным вопросам.

**Abstract**

The article presents information about the cognitive competence of music education teachers, their ability to obtain information in the educational process, organize their activities in educational systems, and provide themselves with new information. In this process of music education, it was suggested that the cognitive psychology of students should be improved through effective pedagogical approaches in order to regularly update their professional knowledge, gradually develop skills, and subsequently teach as music education. teachers, solve problems in their imaginary thinking. Music education also plays an important role in social and personal development. Cognitive competence is important in this topic, and competence ensures that students can easily acquire new knowledge from teachers. The article is devoted to these topical issues.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, jamiyat, tafakkur, kognitiv kompetentlik, fanlararo tafakkur, kognitiv psixologiya, kognitiv shaxs, ijtimoiy pedagogik jihat.

**Ключевые слова:** Личность, общество, мышление, познавательная компетентность, междисциплинарное мышление, когнитивная психология, познавательная личность, социально-педагогический аспект.

**Key words:** Personality, society, thinking, cognitive competence, interdisciplinary thinking, cognitive psychology, cognitive personality, socio-pedagogical aspect.

**KIRISH**

Jahonda shaxs intellektual taraqqiyoti, to'g'ri qaror qabul qilish orqali faoliyatini samarali tashkil etish, divergent tafakkur uslubini shakllanishi, virtual olamda axborotlarni idrok qilish hamda qayta ishlashdagi vizual-fazoviy strategiyalarni rivojlanishining psixo-pedagogik, individual omillarini aniqlash, kognitiv kompetentlikni pedagogik jarayonda namoyon bo'lish dinamikasini o'rganish masalalari ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini fanlararo hamkorlikda rivojlantirish orqali ularning nostandart vaziyatlarda sintetik, assotsiativ tafakkur uslubini namoyon bo'lishini ta'minlovchi omillar, mustaqil kognitiv uslub hamda faoliyat uslublarining ta'siri, xotira samaradorligining temperament xususiyatlariga bog'liq holda

rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish ishlarini amalga oshirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Fanlararo muammosi "bu – muammoli tafakkur, "ofset ko'rish"dir. Bu bilimlarni distsiplinar tarzda egallashdan voz kechishni bildirmaydi, balki uni fanlararo tafakkurni shakllantiruvchi materialni fanlararo tarzda uzatish usullari bilan to'ldirishni bildiradi».

Fanlararo tafakkur - birlashayotgan (integratsiyalashayotgan) distsiplinar fanlar uchun umumiy muammolarni hal qilishda bilish makonini shakllantirish asosini tashkil qiladi. Mazkur muammolarni o'rganish muayyan turdagi tafakkurning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Bir fanning nazariy tasavvurlari boshqa distsiplinar fan tomonidan ishlatiladi, bu jarayon umumiy muammolarni hal qilishda yordam beradi, ya'ni fanlararo tadqiqotlarda umumiy metodologik, bilish yondashuvlarini yaratish to'g'risida so'z yuritilmoqda.

Jahonda kognitiv kompetentlikning o'quv faoliyatida shakllanishi, virtual hamda ijtimoiy axborotlarni idrok qilish va qayta ishlashda talaba tafakkur uslubini namoyon bo'lishining individual farqlari, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv uslubidagi differentsial xususiyatlar, xotira samaradorligi, mnemonika, frustratsiya holatidagi «impulsivlik-refleksivlik» kognitiv uslubining namoyon bo'lish mexanizmlari, axborotlarga nisbatan tolerantlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kognitiv kompetentlikning mohiyati, uning shaxs individualligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik jihatlari, faoliyat va tafakkurda namoyon bo'lishi, kognitiv soddalik va murakkablikda kuzatiladigan pedagogik ta'sir darajalari, kognitiv kompetentlikning psixologik xususiyatlari, ta'lim jarayonining talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlanishiga ta'siri masalalarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda. Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida, xususan Angliya musiqa ta'limi markazi, Yaponiya skripka ijrochiligiga o'rgatish orqali musiqiy malakalarni rivojlantirish markazi, Vengriya musiqa o'quvini rivojlantirish markazi, Germaniya qo'shiqchilik o'quv-tadqiqotlari markazi, Shveysariya musiqali ijod markazi, Rossiya musiqa asarlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish markazlarida bo'lajak musiqa o'qituvchisining ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga ularda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini, badiiy-estetik didini, idealini va qarashlari tizimini rivojlantirishga doir metodik tizim muntazam takomillashtirilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kognitiv kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish yo'llarini o'rganishda faqat nazariy va tarixiy asoslar bilan cheklanmay, balki amaliy tadqiqot natijalari yuzasidan amalga oshirilgan xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar solishtirildi, tahlil etilib o'rganildi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy konitivlikni takomillashtirish borasida xorijiy davlatlar musiqashunos, pedagog olimlaridan Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman, Ali .), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalari ko'rish mumkin. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamalakatlar olimlaridan kognitivlikka qaratilgan ilmiy tadqiqotlar orqali musiqiy ta'limni rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat qaratilganligi: B.S.Gershunskiy, V.P.Bezipalko, I.V.Snigirov, B.G.Asafev, B.L.Yavorskiy, A.B.Goldenveyzer, D.B.Kabalevskiy, O.A.Apraksina, E.B.Abdulin, Yu.B.Aliev, L.G.Archajnikova A.N.Leybovich, G.A.Ball, S.E.SHisovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari orqali o'rganilgan.

SHu jumladan mamalakatimiz olimlaridan R.SH.Axlidinov, R.X.Jo'raev, J.G'.Yo'ldoshev, U.N.Nishonaliev, D.Sh.Shodiyev, A.K.Avliyovqulov, A.Bekmurodov, X.Inoyatov, R.Q.Karimov, X.A.To'raqulov, M.H.Hasanovlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kognitivligini DTSni takomillashtirish asosidagi didaktik jihatlari, samarali pedagogik omillari va ularning ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha monitoringni tashkil etish muammolarining tadqiqiga yo'naltirilgan. va mazkur jarayonni amalga oshirish bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining konitiv kompetentligi takomillashtirish modeli hamda uning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarur degan xulosaga kelindi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Yoshlarimiz erkin fikrlaydigan, har qanday salbiy ta'sirchan g'oyalardan, ong, tafakkur qaramligidan ozod, oilada, atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni haqqoniy baholaydigan va ularga erkin munosabatlarini bildira oladigan, o'zining ilg'or fikrlari, na'munasi bilan oila a'zolari, sinfdoshlari, do'stlariga ta'sir qila oladigan, intellektual kuchga ega, tirishqoq, bilimli, jasur va odobli bo'lmog'i nazarda tutiladi. Haqiqatan ham yoshlarga pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo'llash asosida mukammal bilimlar berish hamda ularda erkin fikrlashni shakllantirish, an'ana va urf-odatlarimiz asosida Vatanga sadoqat ruhini tarbiyalash zamirida sog'lom turmushga, mustaqil hayotga tayyorlash har bir o'qituvchi va jamoatchilikning muhim vazifasi hisoblanadi [1]. Shunday ekan,

talaba yoshlar tarbiyasida bilishga bo'lgan e'tibor o'z davrining munosib kishisi bo'lib yetishish uchun tinimsiz bilim va ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'ladi. Shu o'rinda biz inson kognitiv psixologiyasiga ham mavzu yuzasidan to'xtalib o'tmoqchimiz.

Kognitiv psixologiya butun ruhiy jarayonlarni hissiyotdan tortib to anglash, nevrologiya, e'tibor, ong, o'rganish, xotira, konsept yaratish, fikrlash, tasavvur qilish, eslash, til, hissiyotlar va rivojlanish jarayoni hamda harakatlarning barcha mumkin bo'lgan sohalarni o'z ichiga oladi. Fikrlash qobiliyatini mohiyatini tushunishimiz uchun olingan barcha tadqiqotlar shular jumlasidandur. Va bu mavzu insonni o'zini chetdan bir ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, yangi vazifalardan kelib chiqqan holda, shubhasiz, shaxsning intellektual mohiyatiga bo'lgan nuqtai nazarini aniqlashga yordam beradi. Insonlar psixikasini yanada to'liq va aniq bilim va asab tizimining tuzilishi va faoliyati ko'p kashfiyotlar uchun, biz erishgan yangi mantiqiy vositalar, keng kompyuterlar joriy etish, inson psixologiyasi va madaniy amaliyotlarni o'rganishda uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish, rivojlantirish orqali kognitiv psixologiya uchun dastlab Platon, Dessartes, Kant va Darvin tomonidan ishlab chiqilgan savollarni chuqur tushunish haqidagi fikrlari asos bo'lgan. Tevarak-atrof muhitidagi narsa va hodisalarning ko'rinishi, eshitilishi, hid tarqatishi, tovlanishi, yengil yoki og'irligi, qattiq yoki yumshoqligi kabilar hayvonlar uchun shartsiz qo'zg'atuvchi signal qo'lib xizmat qiladi, keyinchalik ular shartli refleksga aylanishi mumkin.

Kognitiv so'zi inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition" – bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi. O'z o'rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq hodisadir.

Kognitiv shaxs haqidagi qarashlar va mana shunday shaxsni tarbiyalash masalalari uzoq o'tmishdan tortib to bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ishiga oladi. Xususan, Abu Nasr Farobiy (873-950) "Inson aqliy qobiliyati u tug'ilgan vaqtidayoq (bola miyasida) tabiiy holda salohiyat holda aqliy tuchunshalarni (olam haqidagi bilimlarini) idrok etishga tayyorlangan bo'ladi. Ammo idrok etish qobiliyatlari turli insonlarda turlichadir. Yoki odamlarda aqliy tuchunshalarni idrok etishga imkoniyat bo'lmasa, ba'zilar bu imkoniyatlarni ishlatmaydi" [2; 48-b.]. Buyuk allomaning ushbu fikrlaridan anglash mumkinki, jamiyatda yashayotgan insonlar qaysidir ma'noda ijodkorlik sifatlariga ega bo'ladi, lekin ushbu sifatlarini yuzaga shiqarish uchun yetarlisha muhit mavjud bo'lishi kerak.

Dunyoda inson uchun kundalik va kasbiy faoliyati davomida yangilik yaratish, yangi innovasion g'oyalar ishlab shiqish, turli kutilmagan vaziyatlarda samarali yo'lni tanlash va oqilona qaror qabul qilish muhim sanalib keladi. Barsha sohalardagi, jumladan, ta'lim sohasini kuzatadigan bo'lsak, yangi ixtirolar, ortimallashgan jarayonlar, yangiliklarning tez inkor qilinishi va bu yo'nalishdagi raqobat salmog'ining tez ortib borishini ko'rishimiz mumkin. Bularning negizini inson omili, tafakkur mahsuli, uning kreativlik sifatleri tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim sanalgan ta'lim tizimi, uning maqsadi va vazifalarini innovatsion usulda takomillashtirishda ta'lim jarayonining asosiy ishtirokshi sanalgan bo'lajak pedagoglarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsersiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida keltirilganidek "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish" [3; 9-b.] oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biriga aylandi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish, talabalar xususan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish va mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimining funksiyalarini halqaro va milliy talablardan kelib chiqqan holda tadqiq qilib borish dolzarb masala sifatida qaralmoqda [4].

Kasbiy kognitiv kompetentsiyaga ega mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan sanaladi. Kuzatish va tahlillar shuni ko'rsatadiki, kognitivlik barcha sohalarning ajaralmas qismi, yo'nalishi va strategik ahamiyatga ega jihati sifatida qaraladi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchisini kognitiv kompetentligini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayonini shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Bugungi tezkor davrda boy tasavvurga, ijodkorona g'oyalarga, keng ma'noda kognitiv sifatlarga ega bo'lmay turib, kamolotga erishib bo'lmaydi, turli ilm va kasb hunarlarni egallab bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, tadqiqotimiz tahlillariga tayangan holda ta'lim jarayoniga nisbatan talabaning kognitivligi deganda uning noodatiy fikrlashi, kutilmagan vaziyatga nisbatan ijobiy javob qaytara bilishi, har qanday savolga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng

mukammal natijani ko'rsatishi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Talabalik davrida kognitivlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu davrda ixtisoslashtirilgan kognitivlikni shakllanishidir. Aniqroq qilib aytganda, bu davrda kasbiy faoliyatga intilish motivatsiyasi ulardagi bilim faolligini rivojlanishi, o'z hayot tarzini aniqlash individuallashuv jarayoni bilan uyg'un holatda kechadi. Ma'lumki, har qanday shaxs o'z kasbiy bilimlarining o'sishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun shaxs o'zining kognitivligi bilan o'z kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, takomillashtirishi lozim. Bunday tajribalarni talabalar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olish natijasida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Shunday ekan, talabalar oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilim asoslarini o'zlashtirishi, balki sohaga yo'naltirilgan kasbiy kompetentsiyalarni egallash, kognitivlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Har birimiz o'z modellarimiz orqali haqiqatni idrok etamiz yoki dunyoning izchil shaklini yaratish uchun zarurat sezamiz. Agar konstruktsiya hodisalari aniq tasavvur qilishga yordam bersa, ehtimol uni saqlash mumkin. Ma'lumoti tasdiqlanmagan bo'lsa aksincha, predmetni qayta ko'rib chiqishga asos bo'lgan qilingan holat hatto chiqarilishi mumkin. Har bir inson o'ziga xos konstruktiv tizimga ega, u hayot tajribalarini talqin qilish uchun foydalanadi. Odamlar hodisalarni sharhlashda bir-biridan farq qiladi. Ikki kishi, ular bir-biriga o'xshash egizaklar bo'lishlari, o'xshash hodisaga qarashlarga ega bo'lishlari va ularni turli usullar bilan sharhlashlari mumkin. Har bir inson o'zining haqiqiy shaxsiy tuzilishidagi "qo'ng'iroq" dan haqiqatni tushunadi. Odamlar orasidagi farq ular voqealarni turli jihatdan sharhlaydilar. Jorj Kelli "Inson o'z hayotini ta'sir hodisalarni oldindan ko'ra bilish uchun haqiqatni tushuntirishga harakat qiladi. Shaxsiy tuzilmalar uning noyob tizimi yordamida kelajagini oldindan bilib beradi. Odamlarning bugungi qarashlari shunday izohlanadi. Insonlarning hulq-atvori kelajakdagi voqealarni qanday bashorat qilish bilan belgilanadi. Bu odam sizning shaxsiy tajribangizni fahmlaydi qanday bilishi mumkin degan ma'noni anglatadi. Jorj Kelli biz odamlar o'z konstruktsiyalarni qanday tashkil qilsa, biz to'g'ri identifikatorini bilishimiz kerak. Ijtimoiy munosabatlar birinchi navbatda bir odamning boshqa shaxsning haqiqatni qanday amalga oshirayotganini tushunishga urinishlaridan iborat. Samarali ta'sir o'tkazish uchun kishi bir –biri bilan tushunishi, uning ustiga-ustak keyingi xatti-harakatlarini inson bilim tuzilishi muvozanatsiz va g'ayrioddiy bo'lishi mumkin emas. Bu shakllangan bo'lsa, zudlik bilan bir qiziqish, bu vaziyatni o'zgartirish uchun, bilim va tizimi, ichki mustahkamlik o'rnatish uchun kerak bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kognitiv kompetentsiya odamlarning ma'lumoti, fikri va aqliy qobiliyatlarini aniqlash, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va yangi ma'lumotlarni olish kabi ko'nikmalarni o'rganishni o'z ichiga oladigan ko'nikma hisoblanadi. Musiqa ta'limi o'qituvchilari uchun kognitiv kompetentsiya, o'quvchilarning musiqa bilan bog'liq ma'lumotlarini osonlik bilan o'rganib, ularni ta'lim berish jarayoniga munosib qo'llab-quvvatlashga, ularning musiqiy ma'lumotlarini tafakkurlash va ta'lim berish imkoniyatlarini yangilashdan kelib chiqadi. Bu kompetentsiya musiqa ta'limi o'quvchilarning ta'lim olishi jarayonida tahliliy fikrlash yo'li bilan yangi bilimlarni berish imkoniyatini oshiradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyacini taccidlash to'g'picida"gi PF-5847-conli Farmoni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazaci", 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-con; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-con.
2. Abu Nasp Farobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi A.Ipisov, M.Maxmudov va bosh. – T.: Yangi asp avlodi, 2016. – 48 b.
3. Povestki dnya v oblasti ustoychivogo razvitiya na period do 2030 goda. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/normativ-qonuniy-asos-1/>
4. [https://strategy.uz/index.php?static=o\\_strategy](https://strategy.uz/index.php?static=o_strategy)